O'quvchilarda raqamli madaniyatning shakllanganlik darajasini aniqlash maqsadida ilmiy asoslangan baholash mezonlari ishlab chiqildi. Ushbu mezonlar o'quvchilarning bilim darajasi, amaliy ko'nikmalari hamda raqamli muhitdagi xulq-atvorini kompleks baholash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval: O'quvchilarda raqamli madaniyatning shakllanganlik darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari¹

Mezoni	Ko'rsatkichlar	Baholash
Bilim	Axborotni tushunish	Test
Ko'nikma	Amaliy foydalanish	Kuzatuv
Xulq-atvor	Etika va xavfsizlik	Monitoring

1 Muallif ishlanmasi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi bir qator ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali ta'minlandi. Xususan, turli ilmiy manbalar asosida kompleks tahlil olib borildi, bir nechta metodlardan foydalanish (triangulyatsiya) orqali natijalarning aniqligi oshirildi, empirik ma'lumotlar statistik jihatdan qayta ishlanib, olingan natijalar o'zaro taqqoslash asosida umumlashtirildi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi muhim ilmiy-uslubiy ahamiyat kasb etib, raqamli madaniyatni tizimli ravishda o'rganish, o'quvchilarning kompetensiyalarini kompleks baholash hamda pedagogik jarayonni yanada takomillashtirish imkonini yaratadi. Tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuv asosida qurilgan bo'lib, raqamli madaniyatni shakllantirish jarayonini har tomonlama va chuqur o'rganish imkonini berdi. Shuningdek, kompetensiyaviy, tizimli va integrativ yondashuvlarning uyg'un qo'llanilishi tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini yanada mustahkamladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot natijasida o'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirish jarayonining nazariy tuzilmasi aniqlashtirildi hamda uning asosiy tarkibiy komponentlari ilmiy jihatdan tizimlashtirildi. Tadqiqot davomida raqamli madaniyat faqat texnik vositalardan foydalanish ko'nikmalari bilan cheklanmasdan, balki o'quvchining raqamli muhitdagi ongli, xavfsiz, axloqiy va tanqidiy faoliyatini belgilovchi kompleks kompetensiya ekanligi asoslab berildi. Olingan natijalar asosida raqamli madaniyatning strukturaviy modeli, uning tarkibiy komponentlari va shakllanganlik darajalari ishlab chiqildi.

Tadqiqot jarayonida raqamli madaniyatning mazmun-mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida uning strukturaviy modeli ishlab chiqildi. Mazkur model raqamli madaniyatni o'zaro uzviy bog'langan to'rtta asosiy komponent – raqamli savodxonlik, axborot xavfsizligi, raqamli etika va tanqidiy fikrlash asosida tavsiflash imkonini beradi. Ushbu model raqamli madaniyatning asosiy komponentlarini tizimli ravishda ifodalab, o'quvchilarning raqamli muhitdagi faoliyatini kompleks baholash uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi (2-rasm).

RAQAMLI MADANIYAT



2-rasm: Raqamli madaniyatning sutrukturaviy modeli

Mazkur modelga ko'ra, raqamli madaniyat o'quvchining raqamli vositalardan foydalanish malakasi bilan bir qatorda uning axborotni anglash, tahlil qilish, baholash va undan mas'uliyat bilan foydalanish darajasini ham belgilaydi.

- *Birinchi komponenti* – **raqamli savodxonlik** – o'quvchilarning elektron resurslardan samarali foydalanish, internet tarmog'ida ma'lumot izlash, zarur axborotni tanlash hamda undan amaliy maqsadlarda foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu komponent raqamli muhitda faoliyat yuritish uchun muhim boshlang'ich asos vazifasini bajaradi.
- *Ikkinchi komponent* – **axborot xavfsizligi** – o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, zararli axborot oqimlarini aniqlash va farqlash, internetdagi xavf-xatarlarni anglash hamda kiberxavfsizlik qoidalariga ongli ravishda rioya qilish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Raqamli texnologiyalar keng ommalashib borayotgan sharoitda mazkur komponentning ahamiyati yanada ortib bormoqda.



- *Uchinchi komponent* – **raqamli etika** – raqamli makonda odob-axloq me'yorlariga amal qilish, boshqalar huquqlarini hurmat qilish, mualliflik huquqini tan olish hamda onlayn muloqot madaniyatiga rioya etish kabi muhim jihatlarni qamrab oladi. Bu esa raqamli madaniyatni nafaqat texnologik, balki ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida ham talqin etish imkonini beradi.
- *To'rtinchi komponent* – **tanqidiy fikrlash** – o'quvchining axborot manbalarini solishtirish, soxta yoki manipulyativ axborotni aniqlash, fakt va fikrni farqlash hamda mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur komponent o'quvchilarning zamonaviy axborot oqimida ongli, mustaqil va mas'uliyatli subyekt sifatida shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan strukturaviy model raqamli madaniyatni ko'p qirrali pedagogik hodisa sifatida tavsiflaydi hamda uni shakllantirishning nazariy asoslarini aniqlashda muhim metodologik tayanch bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli madaniyatning har bir komponenti o'ziga xos mazmun va funksional vazifaga ega bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Shu bois mazkur komponentlar alohida tahlil qilinib, ularning o'quvchi shaxsini rivojlantirishdagi natijaviy ko'rsatkichlari ilmiy jihatdan aniqlashtirildi (2-jadval).

2-jadval: **Raqamli madaniyatning asosiy komponentlari**²

№	Komponent	Tavsifi	Natija
1	Raqamli savodxonlik	Axborotni izlash, saralash va tahlil qilish ko'nikmasi	To'g'ri qaror qabul qilish
2	Axborot xavfsizligi	Shaxsiy va ta'limiy ma'lumotlarni himoya qilish, xavf-xatarlarni anglash	Xavfsiz foydalanish
3	Raqamli etika	Onlayn muhitdagi odob-axloq, muloqot va mas'uliyat me'yorlari	Ijtimoiy madaniyat
4	Tanqidiy fikrlash	Soxta va ishonchsiz axborotni aniqlash, mustaqil tahlil qilish	Analitik tafakkur

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, raqamli savodxonlik o'quvchilarning axborotni izlash va qayta ishlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda ularda mustaqil va asoslangan qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bunda o'quvchi raqamli vositalardan oddiy foydalanishni emas, balki ulardan maqsadga muvofiq va samarali foydalanishni o'rganadi.

Axborot xavfsizligi komponenti o'quvchilarda internetdan xavfsiz foydalanish, shaxsiy parollarni himoya qilish, shubhali havola va resurslarni aniqlash hamda ijtimoiy tarmoqlarda ehtiyotkorlik bilan harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu komponent natijasida o'quvchilarda xavfsiz foydalanish madaniyati shakllanadi.

Raqamli etika komponenti o'quvchilarning raqamli muhitdagi xulq-atvorini tartibga soladi. Xususan, internetda haqoratli ifodalardan foydalanmaslik, plagiatga yo'l qo'ymaslik, boshqalarning fikriga hurmat bilan yondashish hamda mualliflik huquqlariga rioya etish kabi mezonlar ushbu komponent doirasiga kiradi. Natijada o'quvchilarda onlayn ijtimoiy madaniyat rivojlanadi.

Tanqidiy fikrlash esa zamonaviy axborot oqimi sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchi faqat axborotni qabul qiluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi, baholovchi va ongli ravishda tanlay oluvchi subyekt sifatida shakllanishi lozim. Shu sababli mazkur komponent raqamli madaniyatning yuqori intellektual darajasini ifodalovchi muhim tarkibiy qism sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, ushbu komponentlar tizimi o'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishga doir pedagogik faoliyatni maqsadli, tizimli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Tadqiqot davomida raqamli madaniyatning o'quvchilarda shakllanganlik darajasini baholash maqsadida uch bosqichli darajaviy model ishlab chiqildi. Mazkur model o'quvchilarning raqamli muhitdagi bilimlari, ko'nikmalari, xulq-atvori hamda refleksiv yondashuvlarini kompleks baholashga xizmat qiladi (3-jadval).

3-jadval: **Raqamli madaniyatning shakllanganlik darajalari**³

Daraja	Tavsif	Xususiyat
Past	Boshlang'ich bilim va elementar foydalanish	Texnik foydalanish ustun
O'rta	Amaliy ko'nikma va qisman xavfsiz xulq-atvor	Xavfsizlikni tushunish shakllangan
Yuqori	Kompleks kompetensiya va mustaqil yondashuv	Tanqidiy va etik yondashuv ustun

² Muallif ishlanmasi.

³ Muallif ishlanmasi.

Past darajadagi o'quvchilar, odatda, raqamli qurilmalardan oddiy foydalanish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Ular internetdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsalar-da, axborotning ishonchligini baholash, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish hamda etik me'yorlarni anglash ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi. Mazkur bosqichda raqamli faoliyat, asosan, texnik foydalanish bilan cheklanadi.

O'rta darajada esa o'quvchilarda raqamli vositalardan maqsadli foydalanish, ayrim xavfsizlik talablariga rioya qilish, axborot manbalarini qisman tanlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Bunday o'quvchilar internetdagi xavf-xatarlarni to'liq bo'lmasa-da anglaydi, parol xavfsizligi hamda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga oid boshlang'ich bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Yuqori daraja raqamli madaniyatning to'laqonli shakllangan bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichdagi o'quvchi raqamli muhitda nafaqat faol, balki mas'uliyatli, tanqidiy va mustaqil subyekt sifatida namoyon bo'ladi. U axborotni chuqur tahlil qiladi, manipulyativ va yolg'on axborotni ajrata oladi, onlayn etik me'yorlarga ongli ravishda rioya qiladi hamda axborot xavfsizligi talablarini amaliy faoliyatida samarali qo'llay oladi.

Mazkur darajaviy model o'quvchilarda raqamli madaniyatning rivojlanganlik darajasini diagnostika qilish, ularni aniq mezonlar asosida guruhlash hamda keyingi pedagogik ta'sir choralarini belgilash uchun qulay nazariy asos yaratadi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli madaniyatni shakllantirish jarayoni ko'p komponentli va bosqichma-bosqich xarakterga ega bo'lib, u o'quvchilarning raqamli muhitdagi bilimlari, qadriyatlarini, munosabatlarini va xulq-atvorini o'z ichiga oladi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan model va jadvallar raqamli madaniyatni pedagogik jihatdan tizimlash-tirish imkonini berdi. Xususan, strukturaviy model raqamli madaniyatning faqat texnik tayyorgarlik darajasi bilan cheklanmasdan, balki axborot xavfsizligi, raqamli etika va tanqidiy fikrlash kabi muhim tarkibiy komponentlarni ham o'z ichiga olishini ko'rsatdi. Komponentlar jadvali esa raqamli madaniyatning ichki tuzilmasini aniq mezonlar asosida tavsiflash imkonini yaratdi, bu esa kelgusida baholash mezonlari, indikatorlar va diagnostik vositalarni ishlab chiqishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, darajaviy model raqamli madaniyatning shakllanish dinamikasini ochib berib, o'quvchining boshlang'ich texnik foydalanish bosqichidan boshlab, bosqichma-bosqich xavfsiz, etik va tanqidiy raqamli faoliyat darajasiga ko'tarilishi mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Shu tariqa, tadqiqot natijalari o'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy platformasini yaratib, mazkur yo'nalishda keyingi metodik ishlanmalarni ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Olingan natijalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi: o'quvchilarda raqamli madaniyat ko'p komponentli tuzilishga ega bo'lib, uning asosiy elementlari raqamli savodxonlik, axborot xavfsizligi, raqamli etika va tanqidiy fikrlashdan iborat; raqamli madaniyatning shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshadi va uni past, o'rta hamda yuqori darajalar asosida baholash mumkin; ishlab chiqilgan strukturaviy va darajaviy model ushbu fenomenni ilmiy-pedagogik nuqta nazardan tushuntirish hamda ta'lim amaliyotiga samarali tatbiq etish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari o'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari ko'p qirrali va kompleks xarakterga ega ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Olingan ilmiy natijalar mavjud nazariy qarashlar, xalqaro tajriba hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan solishtirilib, tahlil qilindi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan raqamli madaniyat modeli zamonaviy ilmiy qarashlarga mos kelishi aniqlandi. Xususan, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ yondashuvning ustuvorligini ko'rsatadi.

Jumladan, UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan raqamli savodxonlik modeli ham raqamli madaniyatni ko'p komponentli tizim sifatida talqin etadi. Ushbu modelda axborotni boshqarish, xavfsizlik, kommunikatsiya va kontent yaratish ko'nikmalari asosiy yo'nalishlar sifatida ajratilgan. Shuningdek, European Commission tomonidan ishlab chiqilgan DigComp modeli ham o'quvchilarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda tanqidiy fikrlash, xavfsizlik va etik yondashuvni muhim omillar sifatida e'tirof etadi. Mazkur jihatlar tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan strukturaviy model bilan bevosita uyg'unlashadi.

Bu esa tadqiqot natijalarining xalqaro ilmiy yondashuvlar bilan mosligini hamda ularning ilmiy asoslanganligini yana bir bor tasdiqlaydi. Raqamli madaniyatni shakllantirish masalasi rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi va tadqiqot natijalari Finlandiya, Janubiy Koreya hamda AQSh tajribasi bilan taqqoslab o'rganildi (4-jadval).

4-jadval: **Xorijiy davlatlar tajribasi bilan taqqoslash⁴**

Davlat	Yondashuv	Asosiy yo'nalish	Natija
Finlandiya	Media savodxonlik	Tanqidiy fikrlash	Mustaqil fikrlash rivojlangan
Janubiy Koreya	Kiberxavfsizlik ta'limi	Axborot xavfsizligi	Xavfsiz foydalanish darajasi yuqori
AQSh	STEM integratsiya	Raqamli kompetensiyalar	Innovatsion yondashuv

⁴ Muallif ishlanmasi.



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda raqamli madaniyatni shakllantirish alohida fan sifatida emas, balki barcha fanlarga integratsiyalashgan holda tashkil etiladi. Mazkur yondashuv o'quvchilarda kompleks kompetensiyalarni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu tajribalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, raqamli madaniyatni samarali rivojlantirish uchun ta'lim tizimida integratsiyalashgan hamda kompetensiyaviy yondashuvni izchil joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari o'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirish jarayonini pedagogik jihatdan takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Xususan, ishlab chiqilgan strukturaviy model o'quvchilarning raqamli kompetensiyalarini tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi, komponentlar tizimi o'qituvchilarga ta'lim jarayonini maqsadli va samarali tashkil etishda metodik asos vazifasini bajaradi, darajaviy model esa o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini izchil baholash imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida o'quvchilarning raqamli muhitdagi xulq-atvorini samarali boshqarish, ularni axborot xavfsizligi qoidalariga ongli ravishda rioya etishga o'rgatish hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati mavjud.

Tadqiqot jarayonida ayrim muhim jihatlar aniqlashtirildi. Jumladan, o'quvchilarning raqamli vositalardan foydalanish darajasi yuqori bo'lishiga qaramay, axborot xavfsizligi bo'yicha bilim va ko'nikmalarni yanada rivojlantirish zarurati mavjudligi kuzatildi. Shuningdek, raqamli madaniyatni shakllantirish bo'yicha metodik tizimni yanada takomillashtirish ehtiyoji mavjudligi aniqlandi hamda o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri ekanligi qayd etildi.

Bundan tashqari, tadqiqotning ayrim chegaralari ham mavjud bo'lib, ular natijalarni yanada boyitish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Xususan, tadqiqot ma'lum bir o'quvchilar guruhi doirasida olib borilgan, empirik ma'lumotlar hajmi kengaytirishni talab etadi hamda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijalarni muntazam yangilab borishni taqozo etadi.

Tadqiqot natijalari asosida kelgusida rivojlantirish uchun istiqbolli yo'nalishlar ham belgilandi. Jumladan, raqamli madaniyatni shakllantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, sun'iy intellekt asosida individual ta'lim tizimlarini joriy etish, o'quvchilarning raqamli kompetensiyalarini baholashning zamonaviy mezonlarini ishlab chiqish hamda o'qituvchilarning raqamli-pedagogik kompetensiyalarini yanada rivojlantirish muhim yo'nalishlar sifatida e'tirof etildi.

Mazkur bo'limda olib borilgan muhokamalar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirish jarayoni zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas va ustuvor tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari xalqaro tajriba hamda zamonaviy ilmiy qarashlar bilan uyg'un holda bo'lib, ularning amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, raqamli madaniyatni shakllantirishda integrativ yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv hamda xavfsizlik va etik me'yorlarga asoslangan ta'lim asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot doirasida o'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari tizimli ravishda tahlil qilindi hamda uning pedagogik mohiyati, tarkibiy tuzilmasi va shakllantirishga oid ustuvor yondashuvlar ilmiy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

- *Birinchi*dan, raqamli madaniyat ko'p komponentli va integrativ tizim ekanligi aniqlandi. U faqat raqamli qurilmalardan foydalanish ko'nikmasi bilan cheklanmay, balki raqamli savodxonlik, axborot xavfsizligi, raqamli etika hamda tanqidiy fikrlash kabi o'zaro bog'liq tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Mazkur komponentlarning uyg'un rivojlanishi o'quvchining raqamli muhitda samarali, ongli va mas'uliyatli faoliyat yuritishini ta'minlaydi.
- *Ikkinchi*dan, axborot xavfsizligi raqamli madaniyatning asosiy va ajralmas elementi ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Raqamli makonda o'quvchilarning faolligi ortib borayotgan sharoitda ularni shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, zararli kontent va kibexatarlarni anglash hamda xavfsiz internet xulq-atvoriga rioya qilishga o'rgatish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois axborot xavfsizligi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish raqamli madaniyatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.
- *Uchinchi*dan, tadqiqot natijalari kompetensiyaviy yondashuv raqamli madaniyatni shakllantirishda samarali metodologik asoslardan biri ekanligini ko'rsatdi. Mazkur yondashuv o'quvchilarda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, raqamli vositalardan maqsadga muvofiq foydalanish, muammoli vaziyatlarda asosli qaror qabul qilish hamda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli muhitda yuzaga keladigan real pedagogik vaziyatlar orqali o'quvchilarning xavfsiz, etik va tanqidiy faoliyat yuritish kompetensiyalarini shakllantirishda ushbu yondashuvning amaliy samaradorligi yuqori ekanligi tasdiqlandi.

- *To'rtinchidan*, raqamli madaniyatni shakllantirish integratsiyalashgan yondashuvni talab qilishi aniqlandi. Mazkur jarayonni alohida fan yoki tor doiradagi mashg'ulotlar bilan cheklash yetarli emas. Raqamli madaniyat elementlari umumiy o'rta ta'limning turli fanlari, tarbiyaviy mashg'ulotlar, sinfdan tashqari faoliyat hamda oilaviy muhit bilan uzviy bog'liq holda shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv o'quvchida raqamli muhitga nisbatan yaxlit munosabatni, ongli xulq-atvorni va barqaror kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi.
- *Beshinchidan*, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan strukturaviy model va darajaviy yondashuv o'quvchilarda raqamli madaniyatning shakllanganlik darajasini ilmiy-pedagogik jihatdan baholash uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi aniqlandi. Ushbu model yordamida o'quvchilarning raqamli savodxonlik darajasi, axborot xavfsizligi bo'yicha xabardorligi, raqamli etika me'yorlariga rioya qilishi hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatlari bosqichma-bosqich tahlil qilinadi.
- *Oltinchidan*, tadqiqot natijalari asosida o'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirish jarayonini takomillashtirish uchun bir qator muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlar belgilandi. Jumladan, ta'lim mazmuniga raqamli madaniyat va axborot xavfsizligi elementlarini tizimli ravishda kiritish, o'qituvchilarning raqamli-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish, o'quvchilar uchun raqamli xavfsizlikka oid amaliy mashg'ulotlar va treninglarni tashkil etish, media savodxonlik, tanqidiy fikrlash va raqamli etikani o'zaro uyg'un holda o'qitish hamda raqamli madaniyatni baholashning mezon va indikatorlarini ishlab chiqish zarur yo'nalishlar sifatida belgilandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari o'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirish masalasi zamonaviy ta'lim tizimining muhim ilmiy-pedagogik yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda o'quvchilarning raqamli muhitdagi faoliyati nafaqat texnik tayyorgarlik, balki xavfsizlik, etika va tanqidiy tafakkur bilan uyg'un holda tashkil etilishi zarur. Shu jihatdan mazkur tadqiqot natijalari kelgusida metodik tavsiyalar, o'quv dasturlari hamda pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash joizki, o'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirish zamonaviy ta'limning alohida yo'nalishi emas, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi kompleks pedagogik jarayon hisoblanadi. Uni samarali tashkil etish esa ta'lim tizimida ilmiy asoslangan, izchil va integratsiyalashgan yondashuvni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. Digital Literacy Global Framework. – Paris: UNESCO Publishing, 2018. – 146 p.
2. OECD. The Future of Education and Skills 2030. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 180 p.
3. Paul Gilster. Digital Literacy. – New York: Wiley Computer Publishing, 1997. – 276 p.
4. Yoram Eshet-Alkalai. Digital Literacy: A Conceptual Framework for Survival Skills in the Digital Era // Journal of Educational Multimedia and Hypermedia. – 2004. – Vol. 13(1). – P. 93–106.
5. European Commission. DigComp 2.1: The Digital Competence Framework for Citizens. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 48 p.
6. International Telecommunication Union. Global Cybersecurity Index 2020. – Geneva: ITU Publications, 2020. – 95 p.
7. Marc Prensky. Digital Natives, Digital Immigrants // On the Horizon. – 2001. – Vol. 9(5). – P. 1–6.
8. World Bank. World Development Report 2022: Digitalization for Development. – Washington, DC: World Bank, 2022. – 320 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.